



KICHIK VOLEYBOL SPORT TURIGA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASINI VOLEYBOLGA INTEGRATSIYALASH MEXANIZMINING DETERMINANTLARI, TAMOYILLARI

Shukurllayev J.M.

ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.

Tayanch so'zlar: determinant, tamoyil, voleybol, akmeologiya, metodika, sifat, talaba, ilm, integratsiya, mexanizm, natija.

Ключевые слова: детерминант, принцип, волейбол, акмеология, методика, качество, ученик, наука, интеграция, механизм, результат.

Key words: determinant, principle, volleyball, acmeology, methodology, quality, student, science, integration, mechanism, result.

Резюме:

Mazkur maqolada kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mexanizmining determinantlari, tamoyillari bo'yicha ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

Резюме:

В данной статье представлены рекомендации и предложения по детерминантам, принципам механизма интеграции акмеологии подготовки в малый волейбол как вид спорта.

Summary:

This article provides instructions and suggestions on the determinants, principles of the mechanism for integrating the acmeology of preparation for the sport of small volleyball into volleyball.


Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash - bu integrativ sifat bo'lib, u o'z ichiga o'quvchining faolligini va uning vektorining asosini aniqlovchi maqsad, qadriyatlar, motivlar, intilishlar va boshqalarni qamrab oladi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mexanizmi orqali voleybolga akmeologik yo'nalganlik – bu jismoniy tarbiya sohasida ham, keyingi hayot faoliyati sohasida ham maksimal darajada jismoniy sifatlarini (texnikum, oliy ta'lim tizimi, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kasbiy faoliyatda) o'z jismoniy sifatlarini namoyon qilishga, o'quvchini ilg'or rivojlanishga yunaltiruvchi tavsifi hisoblanadi.



Chunki mazkur yondashuv integratsiyasi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini mo'tadil rivojlanishida hamda takomillashishida istiqbolli hisoblanadi. Ushbu sabab mazkur maqola mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur faoliyatni rivojlantirishga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.





Akmeologik yondashuv asosida kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalashga yoʻnalgan taʼlim – oʻquv mashgʻulotlarida harakat texnikalarini anglash va bu borada nazariy va amaliy bilim doirasini kengaytirish, differensiallovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarni rivojlantirish hisoblanadi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mashgʻulotlarida shugʻullanuvchining jismoniy holat koʻrsatkichlari quyidagilardan iborat: tezlik, maydonni koʻrish kengligi, moʻljalaga olish darajasi, salomatlik va jismoniy barkamollik, maxsus jismini tayyorgarlikning yuqori darajasi, sportga boʻlgan ehtiyoj, maxsus bilimlar, jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, texnik harakatlarni shakllantirish va jismoniy yutuqlarni taʼminlaydi. Shu bilan birga, shugʻullanuvchining jismoniy sifatleri va madaniyatining organik elementi sifatida, jismoniy faollik akmeologiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida koʻrib chiqiladi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mashgʻulotlarida shugʻullanuvchilarni jismoniy sifatlerini shakllantirishda amalga oshirilayotgan harakatlar majmui, pedagogik va psixologik, shuningdek, anotomik hamda fiziologik jihatlarni ham bir vaqtning oʻzida qiyoslash imkoniyatini yaratib beradi. Buning natijasida oʻquvchilarni jismoniy sifatlerini bir maromda kechishini, unda qoʻllanilgan metod, vosita, shakl va tamoyillarni bir butun qolibga solishga imkon beradi.

Ushbu kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mexanizmining determinantlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi

shugʻullanuvchilarning jismoniy qobiliyatlarini maqsadli va ehtiyojga yoʻnalgan hamkorlik shakllari va SMART mezonlari (aniqlik, oʻlchamlilik, erishimlilik, resurs bilan taʼminlanganlik, reglament) maqsad belgilash va natijaga moʻljal olish tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish;

kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mexanizmi boʻyicha shugʻullanuvchilar xususiyatlari harakatlar majmui, qiyoslash, organizmni individual rivojlantirish, morfo-funksional jihatlarni hisobga olish kabi determinantlarga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirish;

kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalashda adaptiv, refleksiv kompetentlik darajalarini boholash mezonlari hamda kichik voleybol elementlarini voleybolga qoʻllay olish qobiliyatini akmeologik rivojlanish darajasining progress talablariga koʻra takomillashtirish;



akmeologik yondashuv asosida shug`ullanuvchilarning jismoniy qobiliyatini kichik voleybol mashg`ulotlari vositasida sifatli pozitiv o`zgarishni intensiv ta`minlaydigan muammoli, interfaol usullari va ko`nikmalarni rivojlantiruvchi adaptiv kompleks mashqlar tizimini shug`ullanuvchilarning fiziologik o`shish parametrlari darajalariga integratsiyalash orqali takomillashtirish.

Mazkur determinantlar shug`ullanuvchilar jismoniy qobiliyatlarini bir maromda kechishini, unda qo`llanilgan metod, vosita, shakl va tamoyillarni bir butun qolibga soladi, hamda voleybol elementlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mashg`ulotlarida o`quvchilarning jismoniy tayyorgarlik sifatlarini rivojlantirishda akmeologik o`shish darajasini ta`minlovchi mezon sifatida o`quv mashg`ulotlarini tizimlashtiradi va individual, shaxsiy hamda sub`ektiv o`zgarishlarga erishishda noaniqlik va salbiy xususiyatlarni bartaraf etishni ta`minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. Илмий рисола. Ф.И. Мухамедов, У.Н. Ходжамкулов. ЧДПИ 2019.
2. Shukurllayev J.M. Voleybolga yosh talabalarni tanlashning uslubiy xususiyatlari. ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. № 1. 2020 yil 2 oktyabr.
3. Shukurllayev J.M. "Maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)" PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.
4. Shukurllayev J.M. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni. "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jumali. 2023. № 5. B. 28-30.